



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 20 (1619), 2026-yil 30-yanvar, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON – TURKIYA KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI BARCHA DARAJALARDA YUQORI SUR‘AT VA FAOL MULOQOTLAR BILAN OLIB BORILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘anning taklifiga binoan 29-yanvar kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Anqara shahridagi “Esenbog‘a” xalqaro aeroportida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘an va rafiqasi kutib oldi.

Ikki davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tortdi.

Davlat rahbarlari va birinchi xonimlar qisqa uchrashuv o‘tkazdilar.

Suhbatda O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shundan so‘ng Turkiya Respublikasi Prezidentining Anqara shahridagi Oqsaroy qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbarini Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘an kutib oldi.

Maydonda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdogan‘an shohsupaga ko‘tarildilar. Harbiy orkestr ijrosida ikki mamlakat davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Anqara shahridagi Prezident saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘anning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari butun musulmon ummati uchun muqaddas Ramazon oyi kirib kelayotgani bilan bir-birlarini samimiy tabrikladilar.

O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini,

xususan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalarida yanada kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Barcha darajalardagi yuqori sur‘at va faol muloqotlar mamnuniyat bilan qayd etildi. Tomonlar yaqinda bo‘lib o‘tgan strategik rejalashtirish guruhining “4+4” formatidagi uchrashuvining samarali natijalarini olqishladilar.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo‘shma korxonalar, mamlakatlar o‘rtasidagi aviaqatnovlarning soni izchil o‘lib bormoqda. Muntazam ravishda qo‘shma madaniy tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy himoya va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda loyiha va dasturlarni ilgari surish zarurligi ta‘kidlandi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasida, kiberjinoatchilikka qarshi kurashish

borasida hamkorlik va o‘zaro muvofiqlashtiruvni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘an raisligida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to‘rtinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Tomonlar mazkur yig‘ilish muborak Ramazon oyi hamda ikki mamlakat o‘rtasida Abadiy do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolanganiga 30 yil to‘lishi arafasida o‘tayotgani ramziy ma‘noga ega ekanini ta‘kidladilar.

Siyosiy muloqot jadal rivojlanayotgani, xalqaro masalalar yuzasidan tomonlarning pozitsiyasi o‘xshash ekanini mamnuniyat bilan qayd etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa tuzilmalar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga kelishib olindi.

Parlamentlararo aloqalar, jumladan, do‘stlik guruhlar doirasida faollashdi.

O‘zaro savdo hajmi, shuningdek, Turkiyaning yetakchi kompaniyalari bilan qo‘shma korxona va loyihalarning soni izchil ravishda o‘lib bormoqda.

Kelgusi yillarda tovar ayirboshlash hajmini, jumladan, Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimdagi tovarlar ro‘yxatini kengaytirish orqali 5 milliard dollarga yetkazish vazifasi belgilab olindi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida alohida dastur asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan sanoat kooperatsiyasining yangi ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, hududlararo hamkorlikning ulkan salohiyati qayd etildi. Yil oxiriga qadar O‘zbekistonning barcha viloyatlaridan delegatsiyalar hamkor hududlar bilan loyihalar

portfelini ishlab chiqish maqsadida Turkiyaga tashrif buyuradi.

Qishloq xo‘jaligi, bog‘dorchilik, sog‘liqni saqlash va tibbiy turizm sohalarida Turkiyaning ilg‘or tajribasini joriy etish zarurligi ta‘kidlandi.

Turizm yo‘nalishida aloqalarni rivojlantirish, teatr festivallari va madaniyat haftaliklarini o‘tkazish, tarixiy filmlarni birgalikda ishlab chiqarish, madaniy meros obyektlarini hamkorlikda tiklashga alohida e‘tibor qaratildi.

Ta‘lim sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida shu yil bahorda Buxoroda to‘rtinchi Rektorlar forumini o‘tkazishga kelishib olindi.

Shuningdek, Qo‘shma hukumatlararo komissiya hamraislarining ko‘p qirrali hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Yig‘ilish yakunida ikki davlat hukumatlariga qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash topshirildi.

Shavkat Mirziyoyev Rejep Tayyip Erdogan‘anga O‘zbekistonga tashrif bilan kelishni taklif qildi.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to‘rtinchi yig‘ilishi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘an Qo‘shma bayonot hamda Keng qamrovli strategik sheriklik doirasidagi hamkorlik mexanizmlari to‘g‘risidagi qarorni imzoladilar.

Bundan tashqari, ko‘p qirrali sheriklikning turli yo‘nalishlarini qamrab oluvchi ikki tomonlama hujjatlar to‘plami imzolandi. Xususan:

— sog‘liqni saqlash, ta‘lim va harbiy tibbiyot sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risida;

— iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik to‘g‘risida;

— konchilik sanoatida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida;

— xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida;

— maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— yadro xavfsizligi, jisman himoya qilish, kafolatlar va radiatsion himoya sohasidagi hamkorlik va axborot almashinuvi to‘g‘risida;

— migratsiyaga ko‘maklashish va fuqarolarni o‘z mamlakatiga qaytarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi va Turkiya Din ishlari boshqarmasi o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimlar;

— Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi;

— O‘zbekiston Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi va Turkiya Oliy ta‘lim kengashi o‘rtasida bayonnoma;

— Madaniyat sohasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik rejasini.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘an Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to‘rtinchi yig‘ilishi yakunlari yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida turkiyalik hamkasbiga ko‘rsatilgan mehmondo‘stlik va kengash doirasidagi samarali muzokaralar uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Bugungi kunda Turkiya barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishayotgani va nafaqat musulmon dunyosida, balki global miqyosda ham haqli ravishda yuksak hurmat-e‘tibor qozongan alohida ta‘kidlandi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston — Turkiya do‘stlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘tgan yili o‘zaro savdo hajmi 3 milliard dollardan, qo‘shma korxonalarning soni esa 2,2 mingtadan oshdi, o‘zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi qariyb 10 milliard dollarni tashkil etdi.

Davomi 2-betda

YUKSAK EHTIROM RAMZI VA FAXR TUYG‘USI

O‘zbekiston Prezidentining Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazida bo‘lib turibdi. Jumladan, Turkiyaning yetakchi nashrlari oliy darajadagi tashrif arafasida Shavkat Mirziyoyev oniy, yangi O‘zbekiston yetakchisi rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar haqida tahliliy maqolalar e‘lon qildi.

Yurtdoshlarimiz, turkiyalik qardoshlarimiz mazkur tashrif shukuhini bir necha kun oldinroq his qila boshlagan edi. Anqara shahrining diqqatga sazovor joylari O‘zbekistonning go‘zal bayrog‘i bilan bezatildi, qo‘lida bizning bayroqni tutgan Turkiya aholisi xalqimiz va Prezidentimizga o‘z mehr-muhabbatini izhor qilgani ham mamlakatlarimiz o‘rtasida samimiy munosabatlar yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Prezidentimiz o‘tirgan samolyot Turkiya zaminiga qo‘ndi. Shunda navbatdagi yuksak ehtirom namunasiga guvoh bo‘ldik.

Mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini “Esenbog‘a” xalqaro aeroportida Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan‘an rafiqasi bilan birgalikda kutib oldi.

Oliy darajadagi rasmiy tashrif protokoliga ko‘ra, davlat rahbarini odatda yuqori martabali amaldorlar kutib oladi.

Yuksak martabali mehmonlar sharafiga Turkiya Prezidentining shaxsan o‘zi peshvoz chiqqani O‘zbekiston yetakchisiga alohida hurmat belgisi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik, o‘zaro do‘stlik odatdagi rasmiy darajadan ko‘ra yuqori martaba kasb etayotganini anglatadi, albatta.

Aerportdagi kutib olish marosimida yana bir samimiyat. Harbiy orkestr protokol qoidalarida belgilangan rasmiy kuyni emas, mashhur o‘zbek kuyi — “To‘ylar muborak” filmidagi musiqani ijro etdi.

Bu ham o‘ziga xos ramziy ma‘noga ega deyish mumkin. Davlatimiz rahbarining Turkiyaga tashrifi faqatgina rasmiy tadbirlar va o‘zaro manfaatli kelishuvlardangina iborat emas, balki tarixan tutash xalqlarimiz, turkiy dunyo birdamligining ulug‘vor tantanasi sifatida qabul qilinishiga ishora edi, go‘yo.



Turkiya matbuotidan iqtiboslar

Turkiyaning nufuzli Hürriyet gazetasida “ANKASAM” — Anqara inqiroz va siyosatni o‘rganish markazi direktori, nufuzli tadqiqotchi Mehmet Seyfettin Erolning “O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga tashrifi: Anqara-Toshkent liniyasidagi mintaqaviy-global geosiyosiy koridor” nomli maqolasi chop etildi.

Davomi 2-betda

Sayit YUSUF: “O‘ZBEKISTON TURKSOY FAOLIYATIGA YANGI HAYOT BAG‘ISHLADI”

Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY Bosh kotibi o‘rinbosari Sayit Yusuf “Dunyo” AA muxbiriga O‘zbekistonning turkiy merosini asrab-avaylashdagi roli, mamlakatimizning tashkilot doirasida hamkorlikni rivojlantirishdagi faol pozitsiyasi haqida fikr bildirdi:

Zero, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi go‘zal va betakror shaharlar qadimdan madaniyat va ilm-fan beshigi bo‘lgan. Turkiy dunyoning bu tabarruk zaminidan Muhammad al-Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ularning ilmiy merosi — matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va hadis ilmi kabi yo‘nalishlar nafaqat o‘sha davrda, balki bugungi kun ilm-fani va ma‘naviy taraqqiyotida ham mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Masalan, VIII-IX asrlarda yashab ijod etgan ulug‘ alloma Muhammad al-Xorazmiy “no‘l” raqamini va o‘nlik sanoq tizimini hamda qutblar koordinatalarini birinchilardan bo‘lib asoslab bergan va amaliyotga tatbiq etgan. U yaratgan algebra va algoritmashga oid ilmiy nazariyalar zamonaviy matematika, informatika va raqamli texnologiyalar rivojining poydevori sanaladi.

Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadis ilmidagi merosi esa islom ma‘naviyati,

axloq va ijtimoiy munosabatlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Rayhon Beruniy matematika, astronomiya, tarix, geografiya singari turli fan sohalarini shug‘ullangan. Yerning quyosh atrofiga aylanishi haqidagi fikrini ilgari surgan, Yerning dumaloq shaklda ekanini asoslab bergan va dunyoning geografik xaritasini tuzgan.

Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot va falsafa sohasidagi asarlari hozirgi zamon tibbiy ta‘limi va ilmiy yondashuvlar uchun asos bo‘lmoqda. Mirzo Ulug‘bekning astronomik kuzatuvlari va ilmiy hisob-kitoblari esa zamonaviy astronomiya fani rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Bunday misollarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Eng muhimi, bugungi kunda O‘zbekiston ana shu buyuk merosni, madaniyatni, qadriyatlarini asrab-avaylash, o‘rganish va targ‘ib etish bilan birga, ajdodlarga munosib avlodlarni yetishtirishga ham juda katta e‘tibor qaratmoqda.

Davomi 2-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz_uz_news

2026-yil 30-yanvar, 20-son

O‘ZBEKISTON – TURKIYA KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI BARCHA DARAJALARDA YUQORI SUR‘AT VA FAOL MULOQOTLAR BILAN OLIB BORILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Ikki mamlakat o‘rtasida haftasiga 100 ga yaqin aviaqatnov amalga oshirilmoqda. Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida 9 milliard dollarlik loyihalar portfeli shakllantirilgan.

Kengash yig‘ilishlarini muntazam ravishda o‘tkazish, Hukumatlararo komissiya va Strategik rejalashtirish guruhi mexanizmlaridan samarali foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasidagi o‘zaro qo‘llab-quvvatlash amaliyoti davom ettiriladi.

Yetakchilar savdo hajmini, shu jumladan, Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasida tovarlar turini kengaytirish, ustuvor iqtisodiy tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash orqali 5 milliard dollarga yetkazishga kelishib oldilar.

Shuningdek, madaniy va gumanitar almashinuvlarni yanada kengaytirishga, xususan, birgalikda teatr va kino haftaliklari, badiiy ko‘rgazmalarni o‘tkazish hamda ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Kengash yig‘ilishi yakunlaridan kelib chiqib, ikki mamlakat hukumatlari tomonidan erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish

bo‘yicha keng qamrovli “yo‘l xaritasi” qabul qilinishi ta’kidlandi.

Anqara shahriga rasmiy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an Hatay viloyatida mamlakatimiz tomonidan barpo etilgan “O‘zbekiston” turar joy majmuasining ochilish marosimida ishtirok etdilar.

Tadbirda davlatimiz rahbari uch yil oldin sodir bo‘lgan vayronkor zilzila qardosh turk xalqi uchun og‘ir sinov bo‘lganini ta’kidladi. O‘zbekiston ushbu fojiali davrning dastlabki kunlaridanoq Turkiyaga har tomonlama yordam ko‘rsata boshladi.

Qisqa fursatda 100 nafar o‘zbekistonlik qutqaruvchi va 70 nafar tibbiyot xodimi falokat sodir bo‘lgan hududga yetib bordi. Qidiruv-qutqaruv ishlari natijasida 18 kishi qutqarildi, 200 nafarga yaqin jabrlanganlar vayronalar ostidan chiqarildi. Dala shifoxonasi 4 ming nafar bemorga tibbiy yordam ko‘rsatdi.

Prezident Rejep Tayyip Erdog‘an tashabbusi bilan zilzila oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilayotgani alohida qayd etildi. Bugungi kunga qadar mamlakatda 455 mingdan ortiq uy-joy qurildi.

O‘zbekiston, o‘z navbatida, qisqa muddatlarda Hatay viloyatining Arsuz tumanida 300 dan ziyod to‘liq jihozlangan xonadon, jami 24 ta ko‘p qavatli uydan

iborat barcha zarur infratuzilmaga ega zamonaviy turar joy majmuasini barpo etdi.

Turkiya Prezidenti ushbu majmua nafaqat jabrlangan oilalar uchun yangi uy, balki o‘zbek va turk xalqlari o‘rtasidagi abadiy do‘stlikning yorqin namunasi ekanini ta’kidladi.

Yetakchilar loyihani amalga oshirishda ishtirok etgan qurovchilar, muhandislar, ishchilar va barcha hamkorlarga samimiy minnatdorlik bildirdilar.

Davlat rahbarlari yangi xonadonlar kalitlarini ularning egalariga tantanali ravishda topshirdilar.

Shuningdek, Prezidentlar Istanbulning Bekirkoy tumanida o‘zbek maktabi qurilishini boshlab berdilar. Mazkur dargoh O‘zbekistonning xorijdagi birinchi ta’lim muassasasi bo‘ladi.

Yangi o‘quv maskani Turkiyada yashovchi o‘zbek oilalarining farzandlariga o‘z ona tilida ta’lim olishi bilan birga milliy qadriyatlar, madaniyat va an‘analarni saqlab qolish imkonini beradi.

Tomonlar ushbu maktab ikki qardosh xalq o‘rtasidagi rishtalar yanada mustahkam bo‘lishiga xizmat qilishi, yosh avlod uchun muhim ta’lim va tarbiya markaziga aylanishiga ishonch bildirdilar.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

Boshlanishi 1-betda

“Shubhasiz, so‘nggi yillarda Anqara-Toshkent geosiyosiy o‘qi Yevroosiyo miqyosida strategik muvofiqlashtiruv liniyasiga aylandi va mazkur mintaqaning yuksalishida muhim o‘rin tutmoqda. 2016-2026-yillardagi davr ushbu yangi jarayon uchun mustahkam poydevor yaratdi. Prezident Mirziyoyevning Turkiyaga tashrifi mavjud keng qamrovli strategik sheriklikni yanada mustahkamlashda tarixiy ahamiyatga ega”, deviladi maqolada.



Mehmet Seyfettin Erol Shavkat Mirziyoyev fenomeniga hurmat bilan to‘xtalar ekan, jumladan, “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi, birinchi navbatda, o‘z tamaddun tarixini chuqur idrok etish, teran tajribaga asoslangan davlatchilikni jonlantirishni anglatadi va bu tasavvurni O‘zbekistonga janob Shavkat Mirziyoyev olib keldi. Ushbu konsepsiya ichki siyosatdagi o‘zgarishlar va inson qadrini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar bilangina cheklangan emas. Zero, bizlar yangi davrda mintaqaviylikdan globallik sari ildamlab borayotgan, geosiyosiy mavqei va strategik imkoniyatlari bilan tobora ajralib turayotgan O‘zbekiston voqeligiga duch kelmoqdamiz”, deydi.

Turkiyaning yana bir nufuzli nashri — “Sabah” gazetasida Turkiya Buyuk Millat Majlisining O‘zbekiston-Turkiya Do‘stlik guruhi raisi Osman Mestening quyidagi fikrlari ham e‘tiborga molik: “O‘zbekistonda bo‘lgan vaqtimdagi kuzatishlarimga asoslanib, bir narsani aniq ayta olaman: Bugungi O‘zbekiston 10-yil avvalgidan butunlay farq qiladi. Janob Shavkat

YUKSAK EHTIROM RAMZI VA FAXR TUYG‘USI

Mirziyoyev tomonidan boshlangan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi ta’sirini hamma joyda ko‘rishingiz mumkin. Buyuk va chuqur tarixiy poydevorlar ustida yuksalayotgan mamlakatga guvoh bo‘lmoqdamiz”.

Osman Mesten O‘zbekiston zaminida ro‘y berayotgan Uchinchi Renessans nishonalari haqida ham hayajon bilan gapirgan: “X va XII asrlarda Birinchi Renessans, XV asrda esa Ikkinchi Renessansga mezbonlik qilgan hozirgi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansning nishonalari yuzaga chiqmoqda. Ushbu tasavvur har bir sohada chuqur va jadal ravishda innovatsiyalarni amalga oshirishga, texnologiyalar bilan hamqadam bo‘lishga, oddiy fuqarolarning farovonligini oshirish uchun iqtisodiyotni rivojlantirishga va tarixda bo‘lgani kabi bilim va tafakkurga asoslangan sivilizasiyani bunyod etishga qaratilgan”.

Oliy darajadagi tashrif arafasida Turkiyada iqtisodiy yo‘nalishda katta ta’sirga ega “Ekonomi” gazetasi ham O‘zbekiston va Prezident Shavkat Mirziyoyev haqida qator maqolalar chop etdi.

Jumladan, Turkiya savdo vaziri O‘mer Bolat “O‘zbekiston bilan birgalikda buyuk maqsadlarimiz sari bosqichma-bosqich bormoqdamiz” nomli maqolasida

“Biz O‘zbekiston bilan savdo-iqtisodiy sohalaridagi sherikligimizni rivojlantirishga katta ahamiyat beramiz, ushbu qardosh mamlakat bilan hamkorligimiz o‘zaro manfaatlilik tamoyiliga asoslangan va har tomonlama strategik sheriklik darajasidagi munosabatlarni rivojlantirishda davom etamiz”, deydi.

Turkiya Tashqi iqtisodiy aloqalar kengashining O‘zbekiston-Turkiya kengashi raisi O‘zgur O‘nur O‘zguvenning “10 milliard dollarlik maqsad uchun qo‘shimcha qiymatga ega biznes sherikliklari ajralib turadi” deb nomlangan maqolasida keyingi yillarda O‘zbekistonda maishiy kimyo sohasida iste’mol

tovarlari ishlab chiqarishga katta e‘tibor qaratilayotgani, Turkiya katta tajribaga ega bo‘lgan bu sohada qo‘shma ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish ikki mamlakat o‘rtasida chuqurroq integratsiyaga olib kelishi mumkinligi haqida yozadi.

“Business Turk” nashri bosh maqola sifatida Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Oqsoqollar kengashi raisi Binali Yildirimning “O‘zbekiston va Turkiya: umumiy tarixdan mustahkam kelajak sari” maqolasini chop etdi.

“So‘nggi yillarda O‘zbekistonni ko‘p ziyo-rat qilgan shaxs sifatida joylardagi islohotlar ta’siri shaharlarning rivojlanishi, davlat sektori faoliyati, biznes olami dinamikasi va eng muhimi, jamoatchilikning kelajakka qarashlarida yaqqol sezilayotganini e’tirof etmoqchiman. Har gal borganimda yanada tartibli, yanada rivojlangan va yanada kuchli O‘zbekistonga duch kelaman. Bu o‘zgarishlar nafaqat infratuzilmaviy imkoniyatlarda, balki jamiyatning umumiy kayfiyati va kelajakka intilishida ham yaqqol ko‘rinib turibdi. Islohotlarning eng yuqori darajada qat’iyat bilan amalga oshirilayotgani — muvaffaqiyatning eng muhim sababi.

Janob Shavkat Mirziyoyevning islohotchilik kayfiyati O‘zbekistonning o‘zi bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. Ushbu islohotlarning uzluksizligi nafaqat mamlakatdagi taraqqiyot, balki butun mintaqadagi barqarorlik va umumiy rivojlanish tendensiyasiga asos bo‘lmoqda”, deya barchamizni quvontiradi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz yetakchisining Turkiyaga rasmiy tashrifi nafaqat qardosh mamlakat ommaviy axborot vositalarida ko‘tarinki, samimiy va do‘stona ruhda yoritilmoqda, yuqorida aytganimizdek, xalqaro miqyosda ham alohida katta qiziqish bilan kuzatib borilmoqda.

Ulug‘bek ASROROV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sagit YUSUF: “O‘ZBEKISTON TURKSOY FAOLİYATIGA YANGI HAYOT BAG‘ISHLADI”

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida tarixiy islohotlarni amalga oshirayotgani, ochiq, amaliy va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berayotgani diqqatga sazovor. O‘zbekistonning, jumladan, turkiy xalqlar bilan aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilgani nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun turkiy dunyoda mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllanishiga katta turki berdi. Binobarin, bizning tarixiy o‘tmishimiz bir bo‘lgani kabi porloq kelajagimiz ham faqat birlik va hamjihatlik, yangi ijodiy yutuqlar bilan mushtarak sivilizatsiyamizni rivojlantirish orqali bunyod etiladi. Bugungi kunda butun insoniyat balki har qachongidan ham ko‘proq aynan mana shunday birlikka muhtojdir.

Xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlik munosabatlarini mustahkamlashda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOYning o‘rni va ahamiyati katta. O‘zbekiston mazkur



Turkiy dunyoning siyosat, ilm-fan, tibbiyot, adabiyot va san‘at sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan namoyandalarini rag‘batlantirish maqsadida buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etilgani madaniy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi.

nufuzli tashkilot ta’sischilaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning topshirig‘iga asosan, mamlakat 2022-yildan e’tiboran TURKSOYni yuksak darajada qo‘llab-quvvatlash orqali faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Shu tariqa O‘zbekiston TURKSOY faoliyatiga yangicha ruh bag‘ishladi. Bugun tashkilot doirasidagi har bir loyihada o‘zbek xalqining boy madaniyati, san’ati, an’analari va mehmondo‘stlik fazilatlarini yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda turkiy mamlakatlar madaniyati va san’ati kunlari, yoshlar va teatr festivallari, ijodiy forumlar uyushqoqlik bilan o‘tkazilmoqda. Tashkilot doirasidagi ilmiy-ma’rifiy anjumanlar, turkiy tillar va adabiyotlari rivojiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalar, madaniy tadbirlar

va loyihalarda O‘zbekiston vakillari faol qatnashmoqda.

O‘zbekistonning brendi darajasiga ko‘tarilgan Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, Xalqaro maqom san’ati anjumani, “Sharq taronalari” festivali, “Lazgi” xalqaro festivalida TURKSOY faol ishtirok etmoqda. Tashkilotimiz tomonidan o‘zbek xalqining buyuk shoir va mutafakkirlari, tarixiy shaxslari tavallud sanalari keng nishonlanmoqda.

O‘zbekistonda TURKSOYning 30 yilligi juda katta tantana sifatida nishonlandi.

Turkiy dunyoning siyosat, ilm-fan, tibbiyot, adabiyot va san‘at sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan namoyandalarini rag‘batlantirish maqsadida buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy nomidagi

xalqaro mukofot ta’sis etilgani madaniy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi.

Madaniyat va san‘at sohasidagi hamkorlikda har yili turkiy davlatlardagi shaharlardan birining “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilinishi eng go’zal an’analarimizdan biri hisoblanadi.

Bu ana shu shahar timsolida har bir mamlakatning o‘ziga xosligi, madaniyati, san’ati, qadriyatlarini xalqaro miqyosda yanada keng namoyish etishga katta turki beradi. 2021-yilda O‘zbekistonning Xiva shahri “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilingan edi. Joriy yilda Andijon shahri shunday yuksak maqomga ega bo‘ldi. Shu ma’noda, 2026-yilda TURKSOY faoliyatining muhim qismi O‘zbekiston bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘tgan yili Qo‘qon shahri “Turkiy dunyoning hunarmandlari shahri” degan e’tirofga sazovor bo‘ldi.

TURKSOY Bosh kotibiyatida har bir a’zo davlatning vakili faoliyat ko‘rsatadi. Bizni quvontirgan yana bir jihati, nihoyat o‘tgan yili Bosh kotibiyatimizda ilk bor O‘zbekiston vakili rasman faoliyatini boshladi. Bu hamkorligimizni yanada rivojlantirishga xizmat qilishiga ishonamiz.

O‘zbekiston yetakchisining TURKSOY faoliyatiga doimo e’tibor bilan qarashi bizga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi. Jumladan, TURKSOY tashkilotining 30 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda o‘tkazilgan madaniyat kunlari ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida Shavkat Mirziyoyev “Biz azaldan tarixi, tili va dini, urf-odat va an’analari, bugungi orzu-intilishlari mushtarak bo‘lgan xalqlarimiz o‘rtasida

“O‘zbekistonning turkiy dunyoda tutgan o‘rni nafaqat boy tarixiy meros, balki porloq kelajakka qaratilgan strategik ezgu intilishlar bilan belgilanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi va TURKSOY doirasidagi yangilanishlar qardosh xalqlarimizning ma’naviy birligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

do‘stlik va hamjihatlik munosabatlarini mustahkamlashda TURKSOYning ulkan o‘rni hamda ahamiyati borligini minnatdorlik bilan e’tirof etamiz”, deya ta’kidlagan edi.

Shavkat Mirziyoyev TURKSOY faoliyatini rivojlantirish borasida ham



takliflarini ilgari surib kelmoqda. Xususan, Turkiy davlatlar tashkilotining 2025-yil 21-may kuni Budapesht shahrida bo‘lib o‘tgan norasmiy sammitida O‘zbekiston rahbari davlatlarimiz o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY alohida o‘ringa ega ekanini e’tirof etib, bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga olib chiqish va TURKSOYning nufuzini yanada oshirish uchun uning faoliyati va tuzilmasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarurligini bildirdi. Shu asosda Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining o‘tgan yili 7-oktabrda Ozarbayjonning Gabala shahrida bo‘lib o‘tgan 12-yig‘ilishida “Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — “TURKSOYni rivojlantirish va mustahkamlash to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Hozirgi vaqtda TURKSOY Bosh kotibiyati ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida a’zo davlatlar bilan birgalikda faol ishlamoqda.

2025-yil yakunlanishi arafasida yana bir quvonchli voqea guvohi bo‘ldik. Noyabr oyida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazida Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon Prezidentlari ishtirokida “Kelajak merosi” xalqaro mukofoti sovrindorlarini taqdirlash marosimi o‘tkazildi. Biz uchun ahamiyatli jihati, ushbu nufuzli mukofotning ilk sohiblari qatorida TURKSOY Bosh kotibi, Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Sulton Rayev “adabiyot” nominatsiyasida taqdirlandi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning turkiy dunyoda tutgan o‘rni nafaqat boy tarixiy meros, balki porloq kelajakka qaratilgan strategik ezgu intilishlar bilan belgilanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi va TURKSOY doirasidagi yangilanishlar qardosh xalqlarimizning ma’naviy birligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ajdodlar sharafi va avlodlar saodati yo‘lidagi bunday hamjihatlik turkiy sivilizatsiyaning jahon maydonidagi nufuzini yanada yuksaltirishi shubhasiz. O‘zbekiston esa o‘zining ilmiy-madaniy salohiyati bilan turkiy olamning ma’naviy yuragi bo‘lib qolaveradi.

“Dunyo” AA

Anqara shahri

Buyuk o'zbek yo'li

“Jamiyatni yuksaltirish” — shior emas balki hayotiy strategiya. Kuchli jamiyat kuchli mahalladan boshlanadi. Har bir obod ko‘cha, har bir band yosh, har bir ijtimoiy himoyaga olingan oila, ko‘yingiki, hayotidan va davlatdan rozi har bir inson bu — yuksalayotgan jamiyatning aniq va ko‘zga ko‘rinadigan natijasidir.

Qisqasi, jamiyatni yuksaltirish insonni qadrlash, fuqarolarning davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga qaratilgan strategiya ehtiyojidir. Bu bir yillik kampaniya emas, balki uzoq muddatli tamadduniy jarayon. U inson ongini ijtimoiy institutlar va davlat siyosati uy‘ung‘idagi amalda oshadi. Prezidentimiz ilgari surayotgan g‘oyalari ana shu uy‘ung‘likni ta‘minlashga qaratilgan. Ularni hayotga tatbiq etish har bir fuqaroning faol ishtiroki tufayli samarali natijaga beradi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Samarali iqtisodiyot

TEKNOLOGIYA, INNOVATSIYA VA INSON KAPITALI – milliy taraqqiyotning uch ustuni

Dunyo xaritasida shunday hududlar borki, yer osti boyliklari ko‘p, ammo aholisi kelajakda ishonch bilan qaray olmaydi. Tabiat saxiylilik qilgan, lekin tarix qattiqqo‘l bo‘lgan o‘lkalar ham kam emas. Ular o‘z taqdirini yer bag‘ridagi xazinalarga ishonib topshirgan, ammo aql, texnologiya va mustaqil tafakkur yetishmagan pallada boylik himoyaga aylanmagan. Natijada tashqi ta’sirlar kuchaygan, ichki barqarorlik so‘ngan, xalq esa o‘z boyligi ustida turib, taqdirini boshqalar hal qilayotgan manzaraga guvoh bo‘lgan, bo‘lyapti.

Bu alohida davlatga xos qismat emas, zamonaviy dunyodagi qattiq qonun. Cheklangan resurslarga suyanagan mamlakat doimo sinov ostida bo‘ladi. Chunki boylik diqqatni tortadi, ammo uni asraydigan kuch faqat bilim va texnologiyadan tug‘iladi. Shu bois, bugungi global raqobat chegaralar yoki armiyalar bilan emas, bilim, texnologiya va ishonch maydonida kechmoqda. Tabiiy resurslarga ega bo‘lish hali yutuq emas, ularni qo‘shilgan qiymatga aylantira olish esa haqiqiy ustunlikdir.

Shu ma’noda, so‘nggi yillarda jahon iqtisodiy va siyosiy jarayonlari bir savol atrofida aylanmoqda: qaysi mamlakat o‘z kelajagini o‘tmish xazinalariga bog‘lab qo‘ydi, qaysi biri esa kelajak imkoniyatlarini yarata oldi?

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror taraqqiyotga erishgan mamlakatlar tabiat bergan ne‘matlarga emas, inson yaratgan bilimga suyanagan. Cheklangan resurslar ko‘p bor qaramlik, beqarorlik va tashqi bosimlar manbaiga aylangan. Ammo texnologiya, innovatsiya va inson kapitaliga tayangan davlatlar global qiymat zanjirlarida o‘z o‘rnini topib, mustaqil taraqqiyot yo‘lini ta’minlay olgan. Bugun dunyo aynan shu ikki yo‘l chorrahasida turibdi.

Ana shunday murakkab va tez o‘zgarayotgan xalqaro muhitda har bir davlat o‘z strategik talonvini qayta ko‘rib chiqmoqda. Bu tanlov faqat iqtisodiy model emas, balki tafakkur, boshqaruv va jamiyat ongini qamrab olgan sivilizatsion qaroridir. Chunki iqtisodiyot raqamlar bilan emas, insonning dunyoqarashi bilan harakatga keladi. Qaysi mamlakatda qaror qabul qilish madaniyati, samaradorlikka bo‘lgan munosabat va bilimga hurmat shakllangan bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot uzluksiz bo‘lishi shubhasiz.

Shu global o‘zgarishlar, keskin raqobat va yangi taraqqiyot qoidalari sharoitida har bir davlat o‘z kelajagini tasodifga tashlab qo‘ya olmaydi. Strategik tanlov aniq, masadlar ravshan va harakatlar muvofiq bo‘lishi talab etiladi. O‘zbekiston ham aynan shu tarixiy pallada o‘z rivojlanish yo‘lini yanada aniq belgilab olmoqda. Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasi ana shu jarayonning mantiqiy ifodasi, mamlakatning kelajakka qarab qilayotgan ong-li qadamining siyosiy va falsafiy aksidir. Unda jahonda kechayotgan tendensiyalar milliy imkoniyatlar bilan uyg‘un holda talqin qilinib, yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan.

Murojaatnomada kelgusi taraqqiyot uchun belgilangan ustuvor yo‘nalishlar ichida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazish masalasi alohida o‘rin tutadi. Ayni yo‘l tanlanar ekan, asosiy e’tibor “ko‘proq ishlab chiqarish”ga emas, samaradorlikka qaratilmoqda. Mazkur tushuncha endilikda faqat iqtisodiy termin emas. U davlat boshqaruvi madaniyati, investitsiya siyosati va inson

kapitaliga bo‘lgan munosabatni belgilab beruvchi mezoniga aylanayotir.

Davlat qancha ko‘p imkoniyatga ega bo‘lmasin, uni shakllantira oladigan bilimli, mahoratli va yangilikka ochiq inson kuchi bo‘lmasa, barcha imkoniyatlar faqat imkoniyat sifatida qoladi. O‘zbekiston esa aynan shu kuchni rivojlantirishga intilib, mavjud imkoniyatlarni bilim, texnologiya va innovatsiyalar orqali qo‘shilgan qiymatga aylantirishga yo‘naltirmoqda.

Birgina misol. Joriy yil yuqori texnologik va kam energiya iste’mol qiladigan tarmoqlarni rivojlantirish natijasida 1 dollar qiymatdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiya 13 foizga kamaydi. Ya’ni resurslar samaradorligi orqali yaratish quvvati oshdi. Shu bitta omil orqali yana 1 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratilganini hisobga olsak, bu jarayonning keng ko‘lamli ta’siri va iqtisodiy samarasi yanada ravshan ko‘rinadi.

Yuqoridagi raqamlar shuni anglatadiki, texnologiya va malakasi yuqori kadrlar har bir tarmoqning yuragi. Qayerda ilg‘or texnologiya va yuqori malakaga ega mutaxassislar mavjud bo‘lsa, o‘sha sohada o‘shish barqaror bo‘ladi, vaqti-vaqti bilan iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu bois, ko‘zlangan ulkan maqsad — 2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulotni 240 milliard dollardan oshirishning eng ishonchli yo‘li — barcha



iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik va innovatsion rivojlanish modeli asosida transformatsiya qilishdir.

Bu o‘shishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tishi — iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining markaziy yo‘nalishi hisoblanadi.

Investitsiya siyosati ham aynan shu yondashuv bilan uyg‘unlashmoqda. So‘nggi to‘qqiz yil ichida barcha tarmoqlarga jalb qilingan 130 milliard dollarlik xorijiy mablag‘ faqat raqam emas, balki yangi O‘zbekistonning global iqtisodiy maydondagi ishonch va jozibadorligi

ko‘rsatkichidir. Joriy yilda esa chet ellik hamkorlar bilan yana 140 milliard dollarlik yangi investitsiya kelishuvlariga erishildi.

Bu mamlakatimiz barqaror va ishonchli investitsiya muhitiga aylanganligini tasdiqlaydi.

Kelgusi yili kutilgan 50 milliard dollarlik investitsiya esa endi shunchaki mablag‘ kirishi emas, balki har bir mablag‘ yangi texnologiyalar, malakali ishchi kuchi va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratishga xizmat qilishi sharti bilan rejalashtirilmoqda. Shu nuqtaiy nazardan, investor faqat kapital manbai emas, balki innovatsion rivojlanishning katalitikasiga aylanadi. Yangi texnologiya va yangi kompetensiyalar olib kirgan, eksportga yo‘naltirilgan investitsiya eng ishonchli hamkor sifatida davlat siyosatida markaziy o‘rin egallaydi.



Shu tarzda har bir investitsiya, har bir loyiha va har bir energiya tejash orqali mamlakat resurslarini samarali boshqaradigan, bilim va texnologiyaga asoslangan barqaror rivojlanish modeliga intilayotganini ko‘rsatmoqda.

Investitsiya va iqtisodiy taraqqiyotning muvaffaqiyati mablag‘ning kirib kelishi bilan chegaralanmay, balki shu mablag‘lardan qanday samarali foydalanish, ularni qanday strategik yo‘nalishlarga yo‘naltirishda ham aks etadi. Murojaatnomada ta’kidlanganidek, strategik investorlarga yerlar bozor qiymatida bevosita

taqdim etilishi, iqtisodiy imkoniyat bo‘lishi bilan birga ishonch va hamkorlik nishonasidir. Ushbu tizim orqali investorlar “idoradan-idoraga yugurmasdan”, yagona raqamli platforma — “invest.gov.uz” orqali barcha xizmatlarni olish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa vaqti tejash va byurokratiyadan ozodlikni ta’minlaydi. Shu tarzda har bir investitsiya milliy iqtisodiyotning texnologik va raqobatbardosh salohiyatiga aylanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar orqali jahonning mashhur brendlarini jalb qilish ham strategik ahamiyatga ega. Bu yerda korxonalar xalqaro standartlar va ekologik qoidalar asosida ishlaydi, ularga esa imtiyozli soliq, bojxona va huquqiy rejimlar beriladi. Bu, o‘z navbatida, investor uchun qulay muhit yaratadi va milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjiridagi ishtirokini ta’minlaydi.

Ko‘zlangan rejaralar ortidan kelgusi besh yilda 800 milliard dollarlik xorijiy investitsiya orqali 1 million yuqori daromadli ish o‘rnini yaratish maqsad qilingan. Shuningdek, har bir investitsiya loyiha asosida amalga oshiriladi, uning samaradorligi doimiy monitoring qilinadi va faqatgina strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlarda ishlatilishi ta’minlanadi.

Shu tariqa har bir investor va har bir loyiha nafaqat moddiy qiymat yaratadi, balki milliy iqtisodiyotni texnologik transformatsiya va inson kapitalini rivojlantirish yo‘lidagi muhim qismga aylanadi. Bu jarayon zamonaviy taraqqiyotning murakkab, ammo intellektual markaziy mexanizmi sifatida mamlakatning global bozorlardagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Murojaatnomada belgilab berilgan 2026-yilga oid sanoat va texnologiya siyosati, aslida, iqtisodiy rivojlanishga nisbatan mutlaqo yangi falsafiy yondashuvni ifoda etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, iqtisodiy o‘shish endi alohida tarmoqlarni ko‘llab-quvvatlash bilan cheklanmaydi, balki butun iqtisodiyotni yagona texnologik tizim sifatida qayta qurishni nazarda tutadi. Shu ma’noda, kelgusi yilda sanoat tarmoqlariga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmi va tarkibi mamlakatning strategik talonvini yaqqol namoyon qiladi.

Xususan, 2026-yilda kimyo sanoatida 4,5 milliard dollar, tog‘-kon, metallurgiya, neft-gaz, avtomobilsozlik, to‘qimachilik va qurilish materiallari tarmoqlarining har birida 3 milliard dollar, elektrotexnika sohasida 2 milliard dollar, farmatsevtika tarmog‘ida esa



800 million dollar miqdorida yangi loyihalar boshlanishi rejalashtirilmoqda. Bu raqamlar oddiy investitsiya ko‘rsatkichi emas, balki iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xomashyoga qaramlikni kamaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan uzoq muddatli siyosatning ifodasidir.

Ayni shu tarmoqlar tanlanishi bejiz emas. Chunki aynan kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, farmatsevtika va elektrotexnika sohalari global qiymat zanjirlarida eng katta texnologik va intellektual qo‘shilgan qiymatni shakllantiradi. Bu esa mamlakat sanoatini faqat ishlab chiqaruvchi emas, balki texnologiya yaratuvchi subyekti sifatida maydonga olib chiqish imkonini beradi.

Shu asosda 2026-yilda mamlakat eksport hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini esa 55 foizdan oshirish maqsadi qo‘yilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘shishning sifat jihatidan o‘zgarishini anglatadi. Ya’ni eksport hajmini oshirish endi faqat miqdor bilan emas, balki mahsulotning texnologik murakkabligi va bozordagi raqobatbardoshligi bilan belgilanadi.

Kelgusi yilda iqtisodiyotda 6,6 foiz o‘shish ta’minlanib, yalpi ichki mahsulot hajmi 167 milliard dollarga yetishi taxmin qilinmoqda. Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va mahsulot tannarxi bo‘yicha tizimli va qat’iy ishlar olib borilsa, iqtisodiy o‘shish salohiyati ancha yuqori ekani ochiq e’tirof etilmoqda. Demak, iqtisodiy rivojlanish endi tashqi omillarga emas, ichki samaradorlikka bog‘lanmoqda.

Shu nuqtaiy nazardan, sanoatda “Unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish” dasturining ishga tushirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu dastur doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mehnat unumdorligi va energiya samaradorligiga qaratilgan maxsus loyiha amalga oshiriladi. Ushbu tashabbus uchun xalqaro moliya institutlaridan 200 million dollar miqdorida kredit va grantlar jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Loyiha doirasida sanoat korxonalari xoriydan yuqori malakali texnolog va muhandislar jalb etiladi, biznes jarayonlar raqamlashtiriladi, energiya va resurs sarfini qisqartirish bo‘yicha chuqur auditorlar o‘tkaziladi. Bu esa iqtisodiy o‘shishni faqat yangi quvvatlar hisobidan emas, balki mavjud imkoniyatlarni yanada samarali ishlatish orqali ta’minlash falsafasiga o‘tishni anglatadi.

Jarayonning mantiqiy davomi sifatida “To‘rtinchi sanoat inqilobi markazi” tashkil etiladi. Markaz negizida robototexnika, internet buyumlari, “aqlli” fabrikalar kabi “Industriya 4.0” yechimlarini joriy etish uchun maxsus tartibga solish mexanizmi yaratiladi. Bu mexanizm korxonalarga yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishdan oldin ularni sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Ya’ni innovatsiya xavf emas, balki boshqariladigan jarayonga aylanadi. Sifat infratuzilmasi sohasidagi islohotlar ham o‘z samarasini bermiqda. Oxirgi ikki yilda O‘zbekiston “Global sifat infratuzilmasi” indeksida 15 pog‘onaga ko‘tarilib, 185 ta davlat orasida 52-o‘rinni egalladi. Ushbu natija milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda tan olinishi uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Shu bilan birga, mahsulot raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida texnik tartibga solish

sohasida yangi bosqichga o‘tiladi. “Davlat nazorati”dan samaradorligi isbotlangan “Bozor nazorati” tizimiga o‘tish orqali sifat va xavfsizlik ustidan nazorat bozor mexanizmlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Innovatsiya asosida yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar esa iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi: mahsulot hajmini oshirgan korxonalarga qo‘shimcha mahsulot qiymatining 5 foizi miqdorida subsidiya beriladi, ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlarnalaridan olingan daromadlar soliqdan ozod qilinadi.

Ana shu chora-tadbirlar natijasida kelgusi besh yilda sanoatda mehnat unumdorligi hozirgi 16,5 ming dollardan 30 ming dollarga, ya’ni deyarli ikki barobar oshishi, 1 ming dollar qo‘shilgan qiymat yaratishga ketadigan energiya sarfi esa 1,5 barobar qisqarishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘shishning yangi — intellektual va texnologik bosqichini anglatadi.

Murojaatnomada belgilab berilgan kapital bozorini rivojlantirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar, aslida, iqtisodiy siyosatning yangi ma’naviy-huquqiy bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolat beradi. Chunki barqaror iqtisodiy o‘shish faqat investitsiya hajmi yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan emas, balki ishonch, shaffoflik va adolatli qoidalariga asoslangan iqtisodiy muhit orqali shakllanadi.

Korxonalarining xalqaro moliya bozorlarida ilk bor o‘z aksiyalarini joylashtirishi mumkin bo‘lishi bu — nafaqat qo‘shimcha moliyaviy resurslarga chiqish, balki milliy biznesning global iqtisodiy makonga to‘laqonli integratsiyalashuvi ham demakdir. Bu orqali tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha 1 milliard dollarlik moliyaviy manba yaratilishi rejalashtirilayotgani, iqtisodiy o‘shishni davlat byudjeti yoki tashqi qarz hisobidan emas, balki bozor mexanizmlari orqali ta’minlashga o‘tilayotganini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv iqtisodiy mustaqillikning yana bir muhim ustuni sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash masalasi Murojaatnomada faqat ma’muriy choralar doirasida emas, balki ijtimoiy kelishuv va iqtisodiy ongni o‘zgartirish nuqtayi nazaridan qo‘yilgani bilan ahamiyatlidir. Oxirgi yillarda ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 45-50 foizdan 28 foizga tushirilgani bu yo‘ldagi ilk, ammo muhim natijadir. Biroq davlat rahbari ta’kidlaganidek, bu hali boshlanishi, xolos.

2026-yilda barcha davlat xizmatlari va kommunal to‘lovlardan tortib, yirik savdo bitimlarigacha bo‘lgan jarayonlarning naqdsiz hisob-kitoblarga o‘tkazilishi, shuningdek, nazorat va tekshiruv organlarida “bodi-kamera” tizimining joriy etilishi — iqtisodiyotda inson omilining salbiy ta’sirini kamaytirish, shaffoflik va javobgarlikni institutsional darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy munosabatlarning qonun ustuvorligiga asoslangan yangi madaniyatini shakllantiradi.

Ayni paytda “soya”da ishlayotgan tadbirkorlarga jazo emas, balki imkoniyat berish tamoyili ilgari surilayotgani alohida e’tiborga loyiq. Buxgalteriya, soliq va statistika hisobotlarini yuritish bo‘yicha bepul o‘qitish tizimining joriy etilishi davlat va biznes o‘rtasidagi munosabatlarda ishonch va hamkorlik modeli qaror topayotganini anglatadi.

Belgilangan dasturlar ijrosi natijasida kelgusi besh yilda yashirin iqtisodiyot ulushi yana ikki karra qisqartirilishi, savdo va servis sohalarida naqdsiz to‘lovlar ulushi 75 foizdan oshishi, rasmiy sektorda band aholi soni esa 8,5 milliondan 14 million nafarga yetkazilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu raqamlar ortida millionlab insonlarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhofaza qilinishiga muhitga kirib kelishi mujassam.

Fuqarolarning o‘z daromad va aktivlarini erkin tasarruf etishiga oid kafolatlarni yaratish masalasi ham aynan shu falsafaning davomidir. Davlat fuqarolari shubha va xavotirda emas, balki ishonch va xotirjamlikda yashashga undayotgani — iqtisodiy siyosatning insonparvarlik mohiyatini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu Murojaatnoma yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim haqiqatini belgilab berdi: iqtisodiy o‘shish — raqamlar yig‘indisi emas, balki inson, ishonch, bilim va adolatga tayangan barqaror tizimdir. Ana shu tizim barpo etilgan joyda iqtisod ham, jamiyat ham, kelajak ham mustahkam bo‘ladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qishning sovuq kunlarida ham bahor tarovatini his qilish juda yoqimli, albatta. Bu, avvalo, issiqxonalarda gulchilik, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan xonadonlarda yaqqol aks etib turadi.



Bandlik

TOMORQA

OILANING ASOSIY DAROMAD MANBAI



Beruniy tumani Bo‘ston mahallasidagi Masharipovlar oilasining uchinchi avlodi ham gulchilik bilan shug‘ullanib, 32 turdagi gul ko‘chatlarini ko‘paytirib kelmogda. Oila a‘zolari mavsum davomida 100-150 million so‘m atrofida daromad oladi. Bundan tashqari, erta bahordan 8 turdagi poliz mahsulotlarini ham yetishtirib, bozorga chiqaradi.

Tumandagi 40 ta mahallada yashovchi 6070 xotin-qiz “Ayollar daftari”ning 6-bosqichida ro‘yxatga olingan edi. “Shabboz” ovul fuqarolar yig‘inidagi xatlov natijasida ijtimoiy daftarga kiritilgan 175 xotin-qizga 6 toifa asosida yordam ko‘rsatildi.

Ishning osoni yo‘q. Limon yetishtirish va parvarishlash ham katta mehnat talab qiladi.

“Shabboz” ovul fuqarolar yig‘inida yashovchi Nigora Qurbonova 10 sotixli issiqxonasida oilaviy mehnat qiladi. Xonadon a‘zolari limon hosili sotuvidan har yili 20-30 million so‘m sof foyda oladi.

— Mehnatga yarasha mo‘l hosil yetishtirib, issiqxonani oilaning asosiy daromad manbaiga aylantirganmiz. Tomorqamizda 80 tup limon bor. Hosilni yig‘ib-terib oldik, — deydi Nigora Qurbonova. — Bundan tashqari, yana ikkita issiqxonamizga erta bahordan pomidor, bodring ekib, hosilini ichki bozorga va qo‘shni tumanlarga yetkazib beramiz.

Beruniy tumanidagi “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inidagi tajribali tomorqachi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Yo‘ldosh Narimbetovni ko‘pchilik yaxshi taniydi.

U yil davomida tomorqasida 3 marta hosil yetishtirish hadisini olgan. Hatto qish kunlarida ham issiqxonasida yangi hosil yetilayotganini ko‘rish mumkin.


— Mehnat farovonlik kaliti ekanini oilamiz misolida ko‘ryapmiz. Farzandlarimizning o‘quv-shartnoma pulini to‘layapmiz. Yangi avtoullov sotib oldik. Tomorqamizdagi 10 sotix issiqxonaning 6 sotixida rediska yetishtiramiz. Uni sotib, 15-20 million so‘m daromad olamiz, — deydi Yo‘ldosh Narimbetov. — Rediskani fevralgacha sotib bo‘lgach, o‘mida pomidor, bodring, baqlajon, murch, karam ko‘chatlarini yetishtiramiz. Ular ikki oyda tayyor bo‘lgandan keyin shartnoma asosida Buxoro, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘istonning barcha tumaniga yetkazib

beramiz. So‘ng bug‘doydin bo‘shagan yerga ekish uchun yana pomidor, bodring, baqlajon, murch, karam ko‘chatlarini ko‘kartiramiz. Umumiy hisobda yil davomida 150 million so‘m atrofida foyda ko‘rsa bo‘ladi.

Bundan avvalroq Yo‘ldosh Narimbetov tashabbusi bilan mahallada brokkoli yetishtirish yo‘liga qo‘yilgan edi. Parhezboq ushbu karam turi bugun Qoraqalpog‘iston sharoitida ham yetishtirilib, tajribali tomorqa egalari tomonidan ichki bozorga va eksportga chiqarga boshlangan. Namunalı tomorqa egasining brokkoli yetishtirishdagi ikki yillik tajribasi samara berdi — 1,5 gektar maydondan jami 15 tonna hosil olindi.

Aholining kundalik ehtiyoji uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda tomorqa xo‘jaliklarining ahamiyati katta. Mehnatning tagi rohat, deydi dono xalqimiz. Tomorqada mehnat qilib, daromad topish o‘zgacha zavq beradi. Yerdan unumli va samarali foydalanish mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga katta hissa qo‘shishi, aholi daromadini oshirishi bilan birga ekologik toza sabzavot mahsulotlariga ehtiyojni ta’minlashda juda muhim.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida mamlakat taraqqiyoti uchun ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida kasbiy ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratishni ustuvor vazifa etib belgiladi. Bu bejiz emas. Zero, bugun dunyoda texnologiyalarning jadal rivoji, yangi iqtisodiy sohalarining paydo bo'lishi, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi kasb-hunar ta'limi ahamiyatini tobora oshirmoqda.



Yetuklik ostonasida

YANGI MEHNAT BOZORI
ARXITEKTURASI

ta'limga e'tiborni yanada oshirmoqda

Kasbiy ta'lim agentligi direktori Azimjon Husanov bilan suhbatimiz mamlakatimizda kasb-hunar ta'limi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'limni amaliyot bilan bog'lash yuzasidan qilinayotgan ishlar xususida bo'ldi.

— Kasbiy ta'lim tashkilotlarida raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tashqi va ichki mehnat bozorida ehtiyoj hamda talabga bevosita bog'liq, — deydi Azimjon Husanov. — Davlat va xususiy sektordagi ish beruvchilar orasida o'rta bo'g'in kadrlariga ehtiyoj hamda texnikumlardagi ta'lim sifati, o'qitish jarayonlarini tashkil etish, texnikumlarda tayyorlanadigan mutaxassislar qo'yiladigan malaka talablari bo'yicha takliflarni o'rganish maqsadida yil davomida anonim so'rovnoma o'tkazib kelinmoqda. Xususan, 2024/2025-yillarda o'tkazilgan anonim so'rovnoma xususiy sektordagi 51 ming 482 korxona (tashkilot) ishtirok etgan. Natijalar tahlil qilingan holda texnikum va ish beruvchilar o'rtasidagi muammolar hal etib kelinmoqda. So'rovnoma mehnat bozorida yaqin 3 yoki 5 yillikdagi eng talabgar kasblar qaysilar bo'lishi, qanday yangi sohalar paydo bo'lishi va qaysilari yo'qolib ketishini aniqlashga yordam beradi.

Kasbiy standartlar va xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim dasturlarini yangilash uchun mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 60 ta kasb ro'yxati shakllantirildi. Migratsiya agentligi bilan hamkorlik o'rnatgan xorijiy ish beruvchi korxonalaridagi bo'sh ish o'rinlari soni hamda mutaxassislarga qo'yiladigan talablar o'rganildi.

Bugun 510 ta kasbiy ta'lim muassasi bilan 14 ming 339 korxona va tashkilot o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ularda 67 ming 641 o'quvchi "ustoz-shogird" an'anasi asosida 140 yo'nalish bo'yicha dual ta'lim shaklida kasb o'rganmoqda. O'quvchilarga korxona va tashkilotlarning 17 mingdan ziyod malakali mutaxassisi biriktirilgan.

2026-yilda 60 ta, 2027-yilda 150 ta va 2028-yilda qolgan barcha kasbiy ta'lim dasturlarini kasbiy standartlar va xalqaro ta'lim dasturlari asosida yangilash belgilangan. Mehnat bozori va xalqaro standart talablariga javob beradigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha rivojlangan davlatlarning o'quv dasturlari talablari o'rganib chiqildi. Ushbu talablar asosida kasbiy ta'limning o'qitish darajalari bo'yicha uzviyligi ta'minlangan holda kompetensiyaga asoslangan yangi formatdagi modulli ta'lim dasturlari loyihasi tayyorlanmoqda.

— Zamonaviy kasblar va yangi mutaxassisliklar deganda nimani tushunamiz?

— Zamonaviy kasblar an'anaviy sohalarining zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish va mehnat bozori talablari asosida mazmunan yangilangan, ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan hamda yuqori samaradorlikni talab qiladigan shaklidir. Oddiy qilib aytganda, ilgari mavjud bo'lgan kasb, ammo ishlash usuli va talablari yangilangan.



Yangi mutaxassisliklar esa texnologik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar sohasining kengayishi va global mehnat bozori ta'sirida avval mavjud bo'lmagan, yangi bilim va ko'nikmalarga asoslangan kasblardir. Qisqasi, ilgari umuman bo'lmagan, yangi ehtiyojdan kelib chiqqan sohalar.

Bugun jadal rivojlanayotgan sohalar va ilgari mavjud bo'lmagan, ammo hozir yashash tarzimizni belgilab berayotgan mutaxassisliklar, masalan, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt, muhandislik, qishloq xo'jaligi sohalarida mutaxassis tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayapti.

— Kasbiy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish muhim. Shu nuqtaiy nazardan, o'qituvchilar va ustalar malakasini oshirish masalasiga qanday yondashilmoqda?

— Joriy yildan boshlab eng yaxshi natija ko'rsatgan pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining xorijda malakasini oshirish, tayanch oliy ta'lim muassasalari huzuridagi hududiy, tarmoq ilg'or kasbiy mahorat texnikumlaridagi malaka oshirish kurslariga qamrab olinishi mazkur yo'nalishdagi tizim chora-tadbirlar samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pedagog kadrlarning malaka toifasini aniqlash bo'yicha o'tkazilayotgan test sinovlari ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuvlar kasbiy ta'lim tizimida kadrlar salohiyati va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikamizdagi kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari har uch yilda

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, tayanch OTMLar huzuridagi 4 ta hududiy, 15 ta tarmoq markazi hamda 4 ta ilg'or professional tayyorgarlik markazida 85 yo'nalish bo'yicha malaka oshirish kurslarida o'qitildi.

2025-yilda 4018 o'qituvchi hamda ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malaka oshirish kurslari Italiya, Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi asosida nazariya va amaliyot uyg'unligida tashkil etildi.

Bu yildan eng yaxshi natija ko'rsatgan 50 nafardan ishlab chiqarish ta'limi ustasi, umumta'lim fanlari va maxsus fan o'qituvchilarini malakasini oshirish uchun xorijga yuborish imkoniyati vujudga kelmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakasini hududiy ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari va tegishli soha bo'yicha malaka oshirish faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega tashkilotlarda oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Ishlab chiqarish ta'lim ustalariga kasbiy sertifikat berish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari



o'quv jarayoniga dars berish uchun jalb etiladigan xorijlik professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini ko'paytirishga ham e'tibor qaratilayapti.

— Yoshlar, ishsizlar va xotin-qizlar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etiladimi?

— Bugun respublikamizdagi 595 kasbiy ta'lim tashkilotida 438 mingga yaqin o'quvchi 329 kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim olmoqda. Shundan 192 ming 185 nafari xotin-qizlardir. 2025/2026-o'quv yili uchun tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida 108 ming 686 xotin-qiz kasb o'rganish maqsadida kasbiy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilindi.

Bundan tashqari, 284 kasbiy ta'lim tashkilotida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 75 kasb bo'yicha 25 ming 721 yigit-qiz va ishsiz aholi, yangi kasb egallash istagidagi fuqarolar qisqa muddatli kurslarda o'qitildi. Shundan 15 ming 772 nafari xotin-qizlardan iborat.

Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish maqsadida 495 ta kasbiy ta'lim tashkilotida xorijiy til o'quv kurslari tashkil etilgan. Hozir kasbiy ta'lim tashkilotlarida 8063 o'quvchi ingliz, nemis, rus, koreys, yapon, turk, fransuz, xitoy tillari bo'yicha o'qitilmoqda.

2024/2025-o'quv yilida texnikumlarga qurilish, transport, kommunal, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida bo'yicha kasb va mutaxassislik egallash istagidagi 790 xotin-qiz

davlat granti asosida ta'lim olishi uchun o'qish xarajati to'liq davlat byudjeti hisobidan qoplab berilgan.

Bugun Prof-emis.edu.uz platformasi orqali 859 xotin-qiz axborot texnologiyalari (kompyuter tizimlari va komplekslari, kompyuter texnikasi montajchisi, kompyuter axborot texnologiyalari — veb-sayt yaratish, axborot vositalari mashinalari va kompyuter tarmoqlari operatori, shuningdek, kompyuter grafikasi va dizayn operatori) yo'nalishi bo'yicha qisqa muddatli kurslarda o'qib kelmoqda. Shu kunga qadar ushbu kurslarda 2949 xotin-qiz o'qitilib, o'qish yakunida ularga davlat namunasidagi sertifikat berilgan.

— Kelgusidagi rejarlar xususida to'xtalsangiz.

— Bolada kasbga qiziqish 7-sinfdan boshlanishini inobatga olib, 9-sinf bitiruvchilarini fanlarni o'zlashtirishi va kasbiy qiziqishiga qarab saralab olish tizimi joriy qilinadi. Bunda oliygo'hlarga kirish istagida bo'lmagan yoshlar texnikumlarga yuboriladi. Joriy yildan boshlab har yili kamida 100 tadan texnikum to'liq ta'minlanib, texnologik va talab yuqori kasblarga mos holda jihozlanadi. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar soni 100 taga yetkaziladi.

Germaniyaning "Avestos" kompaniyasi bilan hamkorlikda Qashqadaryodagi 4 ta texnikumda sanoat mexanigi, avtomobil mexatronikasi texnigi va sanoat elektromontyori kasblari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

"Sho'rtangazkimyo" majmuasi MCHJ ushbu texnikumlarning o'quv ustaxonalarini 2 kasb bo'yicha jihozlaydi. Germaniyaning "Askania Bildung" kompaniyasi bilan nemis ta'lim dasturi asosida 800 o'quvchi oshpazlik, logistika, savdo, mehmonxona xizmati bo'yicha o'qitiladi. Aaxen universiteti klinikasi (Germaniya) bilan hamkorlikda 15 ta tibbiyot texnikumida tashkil etilgan "Germaniya tibbiyot akademiyasi"da hamshiralik yo'nalishi bo'yicha 1200 mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Yetti ta viloyatda ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "Kasblar shaharchasi" faoliyat boshlaydi. Bunda ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari hududdagi boshqa texnikumlar uchun metodik va amaliyot bazasi vazifasini o'tasa, "Kasblar shaharchasi" maktab o'quvchilarini qurilish, servis, sanoat, transport, "yashil" energetika bo'yicha zamonaviy kasblarga yo'naltiradi.

Texnikumlarda ta'lim olayotgan 100 ming o'quvchiga ilk bor stipendiya to'lanadi, "a'lo" baholarga o'qiyotgan, tanlagan kasbini puxta egallagan yigit-qizlarga oshirilgan miqdorda stipendiya beriladi. Maktab o'quvchilarining kasb-hunarga qiziqishini oshirish, zamonaviy va an'anaviy kasblar haqida tasavvurini shakllantirish, kasbiy ta'limning ijtimoiy imijini oshirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida "Kasbga sayohat" respublika kasbiy ta'lim festivali o'tkaziladi.

Bunda alohida kasblar bo'yicha ko'chma kasb-hunar avtobuslari tashkil etilib, grafik asosida maktablarga boradi. Avtobuslar orqali har yili o'rtacha 100 mingdan ortiq o'quvchi kasblar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

Buyuk Britaniyaning "Pearson" kompaniyasi bilan har bir hududdagi bittadan texnikumda xalqaro standart asosida hamshiralar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Ushbu texnikumlarga Germaniya, Shveysariya, AQSH, Yaponiya kabi davlatlarning ta'lim dasturlari ham joriy etiladi. Shu asosda xalqaro talablarga javob beradigan, xorijiy tillarni biladigan hamshiralar tarkibi shakllantiriladi.

Korxonalarda ekostandartlarni joriy qiladigan ekologiya menejeri kasbi talabidan kelib chiqib, har bir hududda "yashil" texnikumlar tashkil etiladi, ularda dual ta'lim asosida yiliga 10 ming mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Yurtimizda ilk bor Turkiy davlatlar texnikumlari o'quvchilari o'rtasida kasb yo'nalishlari bo'yicha xalqaro olimpiada hamda 10 ta dolzarb kasb bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun tanlov o'tkaziladi. Ushbu musobaqalarga 150 mingga yaqin yoshlar qamrab olinishi nazarda tutilmoqda.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA
suhbatlashdi.

MAHALLADA
TINCHLIK, TARTIB VA
HAMJIHATLIK BO'LSA...

Bugun mahalladagi har bir islohot, obodonlashtirish harakati va infratuzilma loyihasi odamlarning kayfiyatini ko'tarib, davlat va kelajakka ishonchini mustahkamlamoqda.

Davlatimiz rahbari 27-yanvar kuni Toshkent shahrida xavfsiz muhiti shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazdi. Unda joriy yilda har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda asosiy bo'g'in mahalla profilaktikasi ekani alohida qayd etildi. So'nggi yillarda davlat boshqaruv organlarida ochiqlik va shaffoflik siyosati yuritilayotgani o'z natijasini bermoqda. Lekin bu jarayon huquq-tartibot idoralari ishiga sekin kirib kelayotgani, ularning faoliyati tashqaridan xolis o'rganilmayotgani aytiladi. Bu idoralarning yopiq holatda ishlashi ularning o'ziga ham, jamoatchilikka ham foyda keltirmasligi, sohada o'zgarish, rivojlanish bo'lmisligi ta'kidlandi. Endilikda Adliya vazirligi tomonidan huquq-tartibot idoralarining faoliyatini "huquqiy audit"dan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. "Huquqni muhofaza qilish faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, adliya organlarining aniq roli, yangi vazifa va vakolatlari belgilanadi.

Bugun mamlakatimiz jadal va har tomonlama rivojlanishning qizg'in pallasiga kirdi hamda bu jarayon tizimli xususiyatga ega. Ya'ni davlat va jamiyat hayotining barcha sohalar — iqtisodiyot, sanoatdan tortib, ijtimoiy siyosat, gumanitar soha, ta'lim, fan va madaniyatgacha hech qanday istisnosiz qamrab olgan. Muhimi, islohotlar yagona mantiqiy tizim asosida kechmoqda. Unda har bir qaror avvalgisii bilan uzviy bog'liq holda uzoq muddatli natijaga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Barcha o'zgarishlar asosida insonning sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash mujassam.



Ayni paytda islohotlar alohida bir tashabbus yoki qarorlar ko'rinishidagina mavjud emas, ular davlat boshqaruvi va arxitekturasiga chuqur singdirilgan ortga qaytmas jarayonlardir.

Bugun global miqyosda hal qilinishi zarur bo'lgan eng dolzarb muammolardan biri korrupsiyadir. U davlat va jamiyat rivojiga jiddiy zarar yetkazib, iqtisodiy o'sish sur'atini susaytiradi, investitsiya muhitini buzadi. Eng yomoni, fuqarolarning huquq hamda erkinliklari poymol bo'lishiga olib keladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Bu borada ishlab chiqilgan huquqiy baza, tashkil etilgan institutsional tuzilmalar va ko'rilayotgan amaliy chora-tadbirlar samara bermoqda.

2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi yurtimizni yanada taraqqiy ettirish, aholi daromadini oshirish, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, fuqarolik jamiyatini yuksaltirish yo'lidagi ortga qaytmas islohotlarning uzviy davomidir. Mahalla jamiyatning eng kichik, biroq eng muhim bo'g'ini. Mahallada tinchlik, tartib va hamjihatlik ta'minlansa, butun mamlakatda barqarorlik va taraqqiyot qaror topadi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida



Mansur MUSAYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor

korrupsiyaga yo'l qo'yish yurtimizdagi islohotlarga nisbatan xiyonat sifatida baholangan bejiz emas. Zero, korrupsiya davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdiddir. Shu bois, bu illatga qarshi kurashish bo'yicha "favqulodda holat" e'lon qilindi.

Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi. Yig'ilishda Prezident Administratsiyasi va davlat idoralarida kompleks va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yilgani, korrupsiyaviy sxemalar bo'yicha zarar aniqlanib, undirilayotgani qayd etildi.

Takomillashtirilayotgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, korrupsiyaviy

Orzu va niyat — inson hayotidagi eng totli tushunchalardan. Sababi, unib-o'sib kelayotgan yosh borki, yuksak cho'qqilarni ko'zlab yashaydi, ulkan muvaffaqiyatlarga erishishni maqsad qiladi. Biroq ayni yoshlik pallasida shuni yodda tutish joizki, orzular asosan bilim vositasida ushaladi. Har qanday yutuq uchun mustahkam zamin, ya'ni qat'iy iroda, aniq maqsad hamda vaqtida egallangan va egallanishda davom etayotgan bilim lozim. Bilim tushunchasiga esa "kitob" so'zi egizdir.

Kitobxonlar, KELDI DAVR-U DAVRON BIZGA

men ham katta quvunch bilan qabul qilgandim. Ochig'i, kitob o'qigan insonga mashina sovg'a qilish ko'pchilik uchun ishonish qiyin bo'lgan holat edi. Shuning uchun afsus bilan aytish joizki, ko'pchilik "O'qib shahar olamiding?", "O'qigan bilan nima bo'larding?", "Nari borsa o'qituvchi bo'lasanmi?" degan gaplarni hech bo'lmaganda bir marta bo'lsa ham eshitgan. Bu gaplarni men ham eshitganman. To'g'ri, ota-onam hamisha go'llab-quvvatlab, o'qishimni, yaxshi ta'lim olishimni xohlagan. Ammo atrof-dagilar men kabi oddiy qishloq bolasining muvaffaqiyatga erishishini istasa-da, ishona olmas edi. Biroq Prezidentimiz kattayu kichikni birdek kelajakka dadil qarashga o'rgata oldi. "Yosh kitobxon" tanlovi e'lon qilinib, g'olibiga "Spark" avtomobili sovg'a qilinishi haqidagi lavhalar OAVda namoyish etildi. O'sha kunlarning birida ota-onamga yuzlandim: — Sizlarga mashina sovg'a qilaman! Daladan charchab kelgan dadam hayron qaradi. Men esa davom etdim: — Birinchi o'rinni olgan ishtirokchiga mashina sovg'a qilinadigan tanlov e'lon qilinibdi. Albatta, qatnashib, shu tanlovda g'olib bo'laman. Bu gapimdan ota-onamning chehrasi yorishib, keyin shu maqsadimga yetishishim uchun barcha sharoitlarni qilib berishdi. "Yosh kitobxon"ga qizg'in tayyorgarlik ko'ra boshladim. 2017-yilgi tanlovda omadim kelmagani uchun emas, balki bilimim yetmagani sababli eng oxirgi o'rinni — 14 ta hudud ichida 14-o'rinni qayd etdim. Tanlovda yutqazib kelganimdan keyin aksariyat qishloqdoshlarim meni ko'rganlarida "Ha, O'rmon akamning o'g'li-ya, kali to'g'lingda turgandi. Shart-shart gapirib, mashinani yutib kelmaysanmi? Lekin birinchi o'rinni olgan qiz o'tkir ekan-a? Mayli, yana harakat qil, albatta, qatnash. Bizning qishloqdan ham chiqsin "Prezident sovg'asi"ni haydab yuradigan", deb aytishni odat tusiga aylantirdilar. Bundan xijolat bo'lardim, qaysidir ma'noda mag'lubiyat alamini his qilardim. Biroq aynan shu so'zlar ham turki bo'lib, tanlovda ketma-ket ishtirok etavardim. Ikki emas, uch emas, beshinchi yil deganda — 2022-yilning 7-aprel kuni "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichida 15-19 yosh toifasida 1-o'rinni ko'lg'a kiritdim va ota-onamga 2017-yilda bergan va damni bajardim.

"Prezident sovg'asi"ni yutib kelganimdan so'ng qishlog'imizda kitobga bo'lgan muhabbat otib ketdi. Dadam esa "Spark" da butun viloyatimiz bo'ylab ellikka yaqin maktabga meni olib bordi. Bu maktablarda o'quvchilar bilan uchrashdim. O'quvchilar esa bitta gapni takrorlar edi: "Sizga havas qilamiz, biz ham kitob o'qib, mashina yutamiz". Odamlar havas qiladigan darajaga yetishimga Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar va yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar sababchi bo'ldi. Yurtimizda kitobxonlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik tufayli ilm-ma'rifat yo'lidagi avlodning ko'ksiga shamol tegdi. Bizga "Spark" berilgan bo'lsa, bugungi g'oliblar elektromobillar bilan taqdirlanmoqda. Biz birinchi bor qatnashgan paytda respublika bosqichida 2-o'rinni olgan ishtirokchi kompyuter bilan taqdirlangan bo'lsa, bugun 75 million so'm pul mukofotiga ko'lg'a kiritmoqda. Bu mamlakatimizda islohotlarning yildan yilga yuksalib, qamrovi ham kengayib borayotganidan dalolat. So'nggi yillarda mana shunday kitobxonlik tanlovlarida 3 milliiondan ziyod yosh ishtirok etibdi. Bu hazilakam raqam emas. Yaqinda Prezidentimizning "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va yiliga o'rtaacha 10 ta kitob o'qish maqsadi joriy etilishi, Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi tuzilishi, "Jadidlarizidan" kitobxonlik klubi loyihasi asosida maktab o'quvchilari yiliga kamida 20 ta kitob o'qishining ta'minlanishi, klubning eng faol a'zolari taqdirlanishi belgilandi. Shuningdek, tanlovlar orqali iste'dodli mualliflarni aniqlash va ularga ijod qilish uchun sharoit yaratish maqsadida bir yilgacha BHMning 50 baravari (20 million 600 ming so'mgacha) miqdorida haq to'lanishi, eng sara xorijiy adabiyotlarni o'zbek tiliga va milliy adabiyotlarni xorijiy tillarga tarjima qilish, nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlarining 50 foizi hamda



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Qarorda kitobxonlik bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar aniq va ravshan belgilab qo'yilgan. 11 qismdan iborat dastur to'liq kitobxonlik harakatiga qaratilgan. Shuningdek, jamg'armada tajribali mutaxassislar, olimlar, ziyolilardan iborat Vasiylik kengashi tarkibi shakllantirilgani ham kitobxonlarni quvontiradi. Vasiylik kengashining aniq ish rejalariga kitobxonlik bo'yicha tanlovlarning tizimli tashkil etilishini nazorat qilish, soha rivoji yo'lidagi muammolarni aniqlab, ular yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilgan bo'lib, bular ham kengashning mamlakatimizda kitobxonlik darajasini yuksaltirish yo'lida o'ziga xos o'rin tutishidan darak beradi. Bugun yurtimizda kitobxonlik sohasidagi islohotlarga ko'pchilikning havasi kelmoqda. Bunga o'zim guvohman. O'zbekistonda o'tkazilgan xalqaro forumda mamlakatimizdagi yoshlar siyosati bo'yicha taqdimot qilgan edik. Unda kitobxonlik borasidagi ishlarga to'xtalganimda, bir o'zbekiyonlik ishtirokchining "Eh-a, zo'r tanlov-ku. O'zbekistonga borib, kitob o'qib, mashina yutib kelsak bo'larkan" degan so'zlari hali-hamon yodimdadir. Kitob va kitobxonlar bo'yicha ishlarning ko'lamini haqiqatan keng. Xususan, "Yangi

Toshkent" majmuasida yangi kutubxona qad rostlayotgani so'zimiz isboti. Imom Buxoriy majmuasi, Islom sivilizatsiyasi markazi va muhtasham kutubxona. Bu uch majmua bir vaqtning o'zida qad ko'tarmoqda. Ya'ni ilm, e'tiqod, ma'rifat, ma'naviyat, innovatsiya va ilg'or tashabbuslar bir vaqtning o'zida yuksalmoqda. Yaqinda Prezidentimiz ushbu kutubxona qurilishi bilan tanishdi. Ushbu jarayonni televideniye orqali ko'rib, shuni his qildimki, mazkur kutubxona yangi O'zbekiston kutubxonasi sifatida xalqimizning shonli tarixidan munosib o'rin egallaydi. Ha, chindan ham ne-ne insonlar ko'rinishi orzu qilgan zamonlarda yashayapmiz. Bir vaqtlar Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori, Fitrat kabi jadid bobolarimiz ma'rifat yo'lida harakat qilgani uchun asossiz jazolangan edi. Bugun-chi? Bugun ular boshlab bergan harakat yoshlar qalbiga singib bormoqda. Maktablarda ularning nomlari bilan ataluvchi klublar tashkil etilmoqda. Bu ham ular orzu qilgan kunlarni biz ko'rayotganimizdan dalolat.

Hech yodimdan chiqmaydi: 2022-yilning 30-iyun kuni. "Yangi O'zbekiston" bog'idagi pavilyonda Prezidentimiz "Yosh kitobxon" va "Yosh kitobxon oila" tanlovlari g'oliblari bilan muloqot qildi. O'shanda davlatimiz rahbari "Sizlar kitob o'qib charchamasanglar, men mukofot berib charchamayman", degandi. Shukuni Prezidentimizdan "Mard o'g'lon" davlat mukofotini qabul qilish olgandim. Taqdirlash marosimida esa davlatimiz rahbari ota-onangizga salom va rahmatimni yetkazib qo'yib, deya qo'limni mahkam siqib qo'ygandi. Bugun oddiy yu bekasi bo'lgan onamning ko'ksida "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni porlab turibdi, otam "Prezident sovg'asi" — "Yosh kitobxon" g'olibini deb yozib qo'yilgan mashinada mag'rur yuribdi. Men bularning hammasiga yangi O'zbekistonda Prezidentimiz yaratib bergan imkoniyatlar natijasida erishdim.

Bugun Guliston davlat universitetida yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritayman. Faoliyatim davomidagi asosiy loyiha va tashabbuslarim ham aynan kitobxonlikka qaratilgan. Xususan, talabalar orasida kitobxonlik dehatlariga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Har hafta "Mutolaa maydoni" loyihasi orqali "Mutolaa" ilovasidagi biror asarni o'qib, muhokama qilamiz. Shuningdek, "Mushoira" klubi loiyatini yo'lga qo'yib, yosh ijodkorlarning shakllanishida bor g'ayratimizni safarbar etayapmiz.

Universitetimiz yosh ijodkorlarining kitobini nashr etishni reja qildik. Televideniye bilan hamkorlikda "Bir asar muhokamasi", "Munozara" kabi teleloiyahalarni yo'lga qo'yib, kitobxonlik tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritaymiz.

Yaqinda universitetimizning yangi va zamonaviy Axborot-resurs markazi foydalanishga topshirildi. Yoshlar ishlari agentligining sovg'asi sifatida "1000 kitob" loyihasi doirasida tarjima qilingan kitoblar yangi kutubxonamizga taqdim etildi.

Biz hali o'z ustimizda juda ko'p ishlab, tinimsiz o'qib, yaratib berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda yangi O'zbekistonni ma'rifatlil jamiyat va kitobxonlar yurti sifatida yuksaltirishimiz lozim. Prezidentimiz qarorida har yili kishi boshiga 10 dona kitob o'qilishiga erishish alohida qayd etilgan. Lekin ishonamanki, yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida biz bu raqamni ham tez orada zabt etib, bundan-da yuksak natijalar sari intila boshlaymiz. Hali bir inson yiliga 30-40 dona kitob o'qiydigan kunlarga ham yetib boramiz. Marra aniq, maqsad ravshan. Faqat harakat qilsak, bas.

SPORTDA G'ALABA FAQAT NATIJA BILAN O'LCHANMAYDI

O'tgan 2025-yil yurtimiz sportchilari uchun zafarlarga boy bo'ldi. Jumladan, Dubai shahrida bo'lib o'tgan yoshlar Paraosiyo o'yinlarida mamlakatimiz sportchilari umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Bu g'alabaga Surxondaryo viloyati Termiz tumanida istiqomat qiladigan o'n olti yashar Husniya Olimjonova ham juda katta hissa qo'shdi.

Men kuchliman

Shunday yutuqlar bo'ladiki, yuraklarga muhrlanadi. Dubai arenasida Husniya qo'lg'a kiritgan natija aynan shunday g'alabalar sirasiga kirdi. U yosh bo'lishiga qaramay, matonat va qat'iyat namunasini ko'rsatdi. O'smirlar toifasidagi bahslarda 100, 200, 400, 800 va 1500 metrga yugurish, shuningdek, yadro uloqtirish, balandlikka va uzunlikka sakrash yo'nalishlarida ishtirok etib, jami 8 ta oltin medalni qo'lg'a kiritdi.

— Ketishdan oldin Dubaydan oltin medalsiz qaytmayman deb maqsad qo'ygandim. Raqiblarim juda irodali, mahoratli sportchilar edi. Qolaversa, birinchi bor xalqaro turnirga chiqayotganim uchun kuchli hayajonda edim. Muhtasham sport majmuasiga kirib borganimdan

so'ng bu yerdan oltin medal bilan chiqib ketishim kerak degan qat'iy qarorga kelib, hayajonimni birdan bosib oldim. Dastlab sakrashlarni amalga oshirdim. Qarasam, O'zbekiston reytingda birinchi o'rinda turibdi. Bu menga kuch, shiddat berdi. Demak, hammasini uddalasa bo'lar ekan deya ishonchim ortdi. Birin-ketin g'alabalar kela boshladi, — deydi chempion Husniya Olimjonova. — Eng qiyini musobaqaning

so'nggi kunida bo'ldi. Charchagandim. Dastlab 1500 metrga yugurish bo'ldi. Bir vaqtning o'zida ham sakrash musobaqasi ham, uzoq masofaga yugurishga to'g'ri keldi. Ulardan bittasini tanlash kerak edi. Murabbiylarim yutuqlarimdan xursand. Ularga ikkisiga ham qatnasha olishimni aytganimda hayron qolishdi. Ular meni asrash uchun jiddiy o'ylab ko'rishimni aytdi. Nihoyat qaroringni hurmat qilamiz

deyishdi. O'zimdagi kuch topib, yana ikkita oltin medalni qo'lg'a kiritdim. Shu kunlarda qahramon qiz oilasi bilan birga. Yutuq quvunchi, hayajon hali ham ularni tark etmagan. — Musobaqaga ketganida, to'g'risi, medal kutgandim, biroq bu darajada katta yutuqni xayolimga ham keltirmagandim, — deydi Husniyaning onasi Nigora Siddiqova. — Ular qaytishi kerak bo'lgan kuni turmush o'rtog'im qo'ng'iroq qilib, telefonimga qaragin, dedi. Ko'rsam, qizim Husniya bir emas, ikki emas, naq 8 ta medal olibdi. Bu uning tinimsiz mehnati, otasining yetolmagan orzulariga farzandlik javobi edi. Husniya bu natijaga erishishidagi muhim jihat sportchilar shaffof tizim orqali saralab olingani, parasportga bo'lgan e'tibordir. Muvaffaqiyatga erishishda murabbiylar qatorida oilaning, ayniqsa, ota-onaning hisssasi beqiyos. Husniyaning ota-onasi ham uning kuchli va o'ziga ishonchi yuqori bo'lishini istagan. Shu bois, ular qizini sport zaliga yetaklab borgan. Bugun ana shu harakatlar o'z natijasini berdi. — Yoshligimda sportchi bo'lishni istab, jiddiy shug'ullanardim. Keyinchalik jarohat olib, sportni tashlashga majbur bo'ldim. Do'stlarim shu sohadan ketib, yuqori marralarni egallashganida, bir oz xafa ham bo'lardim. Jarohatlar olmaganimda natijaga erishardim derdim. Yillar o'tib, To'marisday qizni tarbiyalaganimni sezdim. U nafaqat mening, balki yurtimning orini oldi. Bilasizmi, o'g'il farzand ko'rsam, sportchi qilaman deb kutib-kutib, to'rt qizli bo'ldim. So'ng faqat o'g'il bolalar sportchi bo'ladimi deya qizlarimni sportga

yo'naltirdim. Birin-ketin yutuqlarga erisha boshlashdi. Keyin o'g'il farzandli ham bo'ldim, ammo o'z shandagi qarorim to'g'ri ekan. Mana, qizlarimning ham, ular sabab o'zimizning ham hayotim tubdan o'zgardi, — deydi Husniyaning otasi Odil Mirzaqulov. Bugun Husniya Olimjonova nafaqat mahallasi, balki butun O'zbekiston yoshlari uchun iroda va iftixor timsoliga aylandi. Uning g'alabasi minglab tengdoshlariga ilhom, yuzlab sportchilarga ishonch bag'ishlamogda. Qo'lg'a kiritilgan natijalar ortida esa katta mehnat, sabr, qat'iyat va vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat bor. — Sakkitza oltin medal olib, Surxondaryoga kelgan zahoti bitta oltin medalini bo'ynimga taqdi. Ko'z yoshimni tiyib tura olmadim. Demak, bekor yashamabman, inson intilisa, yo'l axtaraversa, orzulari beiz ketmas ekan, — deydi sportchi qizning otasi Odil Mirzaqulov. Husniya yashaydigan mahallada sportga qiziqish yanada oshdi. Uning yutug'i sog'lom turmush tarzini ommalashtirishga xizmat qilyapti. Sportda g'alaba faqat natija bilan o'lchanmaydi. U inson irodasi, sabr-bardoshi va maqsadga bo'lgan ishonch ramzidir. Husniya Olimjonovaning erishganlari O'zbekiston yoshlarining salohiyati, parasportga berilayotgan e'tibor va kelajakka ishonchli qadamlarning yorqin ifodasidir. Shubha yo'qki, qahramonimiz kabi irodali sportchi yoshlar bor ekan, O'zbekiston bayrog'i doimo xalqaro arenalarda baland ko'tarilaveradi.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkiloti javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefon: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-146. 32015 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Munojat Mo'minova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 02:25